“TASDIQLAYMAN”
CHDPU Maktabgacha ta’lim
fakultet dekani
_____O.M.Ibadullayev
“___”_____2025 y

“ TASDIQLAYMAN ”
Toskent viloyati Chirchiq shahar
11-DMTT direktori
_____S.Sh.Kenjaeva
“___”_____2025 y

CHDPU Maktabgacha ta’lim kafedrasi va Toshkent viloyati, Chirchiq shahri “Oqqayimcha” nomli 11-DMTT o‘rtasida o‘rtasida o‘zaro hamkorlik bo‘yicha tuzilgan

SHARTNOMA

Mazkur shartnoma amaldagi qonunchilikda ko‘zda tutilgan maktabgacha ta’limdagi o‘zaro integrasiya jarayonini kuchaytirish,ular o'rtasidagi uzviylik va uzluksizlikni inobatga olgan xolda, hamda ta’lim klaster sharoitida ta’lim jarayonlarini takomillashtirish, metodik tajriba almashish va talabalarni sifatli ta'lim bilan ta’minlash maqsadida tuzdildi

1.Umumiy qoidalar.

1.1 Ushbu shartnoma maktabgacha ta'lim fakulteti jamoalari orasida muhokama qilinib har ikkala ta'lim muassasalari rahbarlari tomonidan muhr bosilgan kundan kuchga kiradi.Shartnomaning ayrim bandlariga tomonlarning kelishuv asosida o'zgartirishlar kiritish mumkin. Shartnomaning amal qilish muddati imzolangan kundan boshla 5 yil.

1.2 Shartnoma bandlarini bajarilish holati bir o’quv yilida kamida ikki marotaba Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Maktabgacha ta’lim” fakulteti,,”Maktabgacha ta'lim pedagogikasi” kafedrasi kengashi va Toshkent viloyati Chirchiq shahar 11-DMTT pedogogik kengashlarida muhokama etib boriladi.

1.3 Shartnoma bandlarini to‘liq va samarali bajarilishini ta’minlash maqsadida tomonlarning o‘zaro kelishuvi asosida har o‘quv yili uchun reja qabul qilinadi va tasdiqlanadi.

2. Maktabgacha ta’lim kafedrasi majburiyatlari.

2.1 Maktabgacha ta’lim tizimida integrasiya jarayonini kuchaytirish, hamda fakultet tomonidan rejalashtirilgan klaster usuli loyihasini amalga oshirishda fakultetda ishlab chiqilgan o‘quv uslubiy qo’llanmalardan MTT faoliyatida foydalanish.

2.2 1 Oyda ikki marotaba MTTga Maktabgacha ta’lim kafedrasi professor – o‘qituvchilari talabalar bilan tashrif buyurib, seminar mashgulotlar o‘tib berish.

2.3 Seminar materiallarini jamlab o‘quv yili oxirida universitetda bo‘lib o‘tadigan konfirentsiyaga taqdim etish.

2.4 DTTda labaratoriya xona tashkillashtirish va xanani jixozlash bo‘yicha tavsiyalar berish ,qo‘llanma-lar bilan ta’minlash.

2.5 Fakultet talabalarini MTTga amaliyot o‘tash uchun jalb qilish, tarbiyachilarga metodik yordam berish.

2.6 Fakultet qoshida tashkillashtirilgan “bog'cha-labaratoriya “ning ilmiy,o‘quv va uslubiy ishlarga MTT tarbiyachilarini jalb qilish.

2.7 Bitiruvchi talabalarni MTTga ishga jalb etish va tashkillashtirish.

3.Maktabgacha ta'lim tashkiloti majburiyatlari.

3.1 Toshkent viliyati Chirchiq shahar “Oqqayimcha” nomli 11-DMTT ni tayanch labaratoriyaga aylantirish.

3.2 Kafedra professor-o‘qituvchilarining ilmiy-tadqiqot ishlari uchun 11 - DMTTda sharoit yaratib berish.

3.3 Kvartalda bir marta talabalar bilan katta seminar tashkil etish.

Maktabgacha ta’lim pedagogikasi
kafedrasi mudiri
D.A.Mutalova

Chirchiq shahar ’’ 11-DMTT
direktor o‘rinbosari
N.Po ‘latova

dual ta'lim dasturini amalga oshirishni ta'minlaydi;

o'qituvchilar va ishlab chiqarish ta'limi ustalarining faoliyatini nazorat qiladi va ular tomonidan belgilangan tartibda ta'lim jarayonini va yakuniy davlat atestatyiyasini belgilangan tartibda tashkil etiladi;

o'qituvchilar kundaligi yuritilishini nazoratga olib borish;

ta'lim muassasi bilan hamkorlikda o'qituvchilarning baholanish jarayonini va yakuniy davlat atestatyiyasini belgilangan tartibda tashkil etadi;

ta'lim muassasi bilan kelishilgan holda ***dual ta'lim*** natijalari yuzasidan hisobotlarni tayyorlaydi va "Oliy ta'lim, fan va inovayiyalar vazirligi Toshkent viloyati hududiy boshqarmasiga taqdim etadi.

SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATLARI

3.1. Mazkur shartnoma imzolangan kundan kuchga kiradi.

3.2. Shartnoma ***dual ta'lim*** asosida shakillantirilgan har bir o'quvchi (guruh)ning qishi davomida amalda bo'ladi.

3.3. Shartnomaga kiritiladigan qushimcha shartlar va o'zlashtirishlarga tomonlar o'n kun muddatda ko'rib chiqadi va kelishuvlar bilan rasmiylahshtiriladi.

3.4. Kiritilgan qo'shimchalar shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

TOMONLAR JAVOBGARLIGI

4.1. Tomonlar mazkur shartnoma bo'yicha o'zining majburiyatlarini bajarmaganliklari uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvogiq javobgar hisoblanadi.

4.2. Tomonlar mazkur shartnoma bo'yicha o'zining tegishli majburiyatlarini bajarmaslik yoki tegishli darajada bajarmaslikda, agarda echimi engib bo'lmaydigan kuchlarga sabab bo'lgan taqdirda va holatlarda javobgarlikdan ozod etiladi.

BOSHQA SHARTLAR

5.1. O'quvchi tomonidan muassasadagi ta'lim jarayonida etkazilgan zarar ta'lim muassasi tomonidan qoplanmaydi.

5.2. Mazkur shartnoma shartlarini bajarish jarayonidagi kelib chiqadigan baho va kelishmovchiliklar tomonlar kelishuviga binoan hal etiladi.

5.3. Mazkur shartnoma bilan hal etilmagan muammolar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvogiq ravishda hal etiladi.

5.4. Shartnoma ikki nusxada tuzulgan bo'lib, har biri bir xil yuridek kuchga ega.

5.5. Shartnomaning shartlariga taraflarning hohishi bilan o'zlashtirilishi mumkin, tegishli shartning mazmuni qonun hujjatlarida ko'rsatib qo'yilgan hollar bundan mustasno.

SHARTNOMANING BAJARILISH MUDDATI

6.1 Bu shartnoma imzolangan kundan boshlab 5 yil muddatga amal qiladi.

6.2 Shartnomada ko'rsatilgan ishlarni to'liq va samarali bajarish uchun har o'quv yilida tadbirlar tuziladi va tasdiqlanadi.

6.3 Qo'shimcha kelishuv asosida bu shartnomaning muddati uzaytirilishi, o'zgarishi yoki bartaraf etilishi mumkin.

6.4 Shartnoma uch nusxada tuziladi va bir xil yuridik kuchga ega.

TOMONLAR YURIDIK MANZIL VA REKVIZITLARI

TA'LIM MUASSASI:	Chirchiq shahar
Toshkent viloyati, Chirchiq shahri,	"Smart kids"
A. Temur ko'chasi, 104-uy	Temiryolchilar 128A
Tel: (0370) 716-68-05,	
faks: (0370) 716-68-11,	
e-mail: tvchdpi@edu.uz	
Chirchiq davlat pedagogika universiteti rektori	Abdullayeva N. R
G.I.Muxamedov _____	*(rahbarning F.I.Sh)*
	_____
	(imzo, muhr)

Dual ta'limni joriy etishda ta'lim muassasi o'rtasidagi o'zaro hamkorlik aloqalari bo'yicha

SHARTNOMA № 2

Chirchiq shahri **2025-yil "** 5 **"** 02

O'zbekiston Respublikasi professional ta'limning dual tizimini tashkil etish tartibi to'g'risida nizom asosida, ***dual ta'lim*** bo'yicha kadirlar tayyorlaydigan professional ta'lim muassasi keyingi o'rinlarda **Ta'lim muassasi** deb nomlanuvchi Chirchiq davlat pedagogika universiteti (keyingi o'rinlarda universitet) nomidan (bir tomondan) universitet Ustavi asosida rektor Muxamedov Gafurdjan Israilovich, ikkinchi tomondan dual ta'limni tashkil etishda, (keyingi o'rinlarda tashkilot) Chirchiq shahar „Smart Kids m.t.t.,
(Tashkilot nomi)
Ustavi asosida Tashkilot rahbari Abdullayeva M R o'rtasida o'zaro hamkorlik
(F.I.Sh)
aloqalari bo'yicha shartnoma tuzildi.

SHARTNOMA PREDMETI

1.1. 60110200 - Maktabgacha ta'lim (mutaxassislik) bo'yicha ***dual ta'lim*** asosida malakali kadirlar tayyorlash hamkorlikda amalga oshirish majburiyatini oladilar.

1.2. O'quvchini mehnat faoliyati ishtirokchisiga aylantirish orqali ta'lim dasturining nazariy, o'quv-amaliy qism professional ta'lim muassasida, malaka hamda kompetenyiyalarni shakillantirishni ishlab chiqarish bilan bog'liq amaliy qismda tashkil etadi.

TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

2.1. Muassasaning huquqlari:

mashg'ulotlarning nazariy qismi o'qitilishi yuzasidan professional ta'lim muassasiga murojaat qilish;

dual ta'lim sifatini oshirish yuzasidan professional ta'lim muassasiga takliflar berish;

muassasa hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lish mumkin.

2.2. Ta'lim muassasasi:

ta'lim muassasi bilan hamkorlikda dual ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

muassasaning etakchi mutaxassislari ta'lim muassasi bilan hamkorlikda dual ta'lim bo'yicha o'quv reja va dasturlarini ishlab chiqadi;

dual ta'limning muddatlari hamda muassasaga yuborilayotgan o'quvchilar tartibi bo'yicha ta'lim muassasi bilan kelishiladi;

dual ta'lim olish bo'yicha o'quvchilar bilan shartnomalar tuzadi va ta'lim muassasi bilan kelishilgan muddatlarda o'quvchilarni qabul qiladi;

har bir o'quvchi (lar)ga dual ta'lim dasturining ishlab chiqarish bilan bog'liq amaliy qismini o'rganish uchun yuqori malakali mutaxassis biriktiradi va shu davr mobaynida o'quvchi bilan birga ishlaydi;

muassasada dual ta'lim dasturining ishlab chiqarish bilan bog'liq amaliy qismini amalga oshirilishini ta'minlaydi va etarli shart-sharoitlar yaratadi;

o'quvchini kasb (mutaxassislik)lari bo'yicha yakuniy davlat attestayiyasida ishtirok etadi;

ta'lim muassasi bilan birgalikda o'qitilishini dual ta'lim tizimida ta'lim berilganligi bo'yicha hisobotlarni tayyorlash.

2.3. Ta'lim muassasining huquqlari:

dual ta'limning amaliy qismi o'tilishi boyicha tashkilotga murojjat qiladi;

dual ta'limning sihatini oshirish yuzasidan tashkilotga takliflar berish.

2.4. Ta'lim muassasi:

Ta'lim muassasa bilan birga kasb (mutaxassislik)lari bo'yicha "Oliy ta'lim, fan va inovayiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlangan ta'lim dasturlari asosida dual ta'lim bo'yicha o'quv miyoriy hujjatlarini ishlab chiqadi va tasqiqlaydi;

ta'lim muassasi bilan birgalikda dual ta'lim berish bo'yicha o'qish muddatlari hamda ta'lim oluvchi o'quvchilarni ro'yhatini shakillantirish;